

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarchodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)


PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
2. Yusupova Soxiba Islombek qizi O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
5. Намазова Манзура Ураковна ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
8. Karimova Dilorom Shavkatovna VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
10. Шахзод Турниязов ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
12. Алена Ялмагиевна Иванова ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич И. ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
18. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
20. Malika Soliyeva INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
21. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122

22. Xurinsa Xudoyberdiyeva TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
23. Israilova Sayera Tashpulat qizi INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
24. Israilova Sayera Tashpulat qizi INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
25. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
26. Робиға Мамбетова ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
27. Ҳамидулла Годжиев ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
28. Ergashova Rano Turaevna LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
29. Bobir Maxammadov MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
30. Xalimova Firuza Rustamovna POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
31. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
32. Матлуба Шукурова ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
33. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195



ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

Matkarimova Gulira'no Abdullayevna


O'zbekiston Respublikasi, Xorazm viloyati

Xiva shaharidagi Ma'mun Universiteti

“Roman-german filologiyasi” kafedrasi o'qituvchisi

gmail: guliranomatkarimova@gmail.com

XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17087360>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida mavjud bo'lgan folklor va mifologiyaga oid fitonimlarni samarali o'qitish yo'llari tahlil qilinadi. Fitonimlarning xalqona tafakkur, ramziy ma'no va madaniy merosdagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolada fitonimlar orqali o'quvchilarda til va madaniyatni uyg'un o'rgatish, interaktiv metodlardan foydalanish va xalq og'zaki ijod namunalari asosida darslarni boyitish usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar: fitonimlar, folklor, mifologiya, madaniy meros, ramziy ma'no, xalq og'zaki ijodi, til va madaniyat, ta'lim metodikasi

Matkarimova Gulira'no Abdullayevna

Lecturer, Department of Romance-Germanic Philology,

Mamun University, Khiva City, Khorezm Region, Republic of Uzbekistan

Email: guliranomatkarimova@gmail.com

LEXICAL AND SEMANTIC FEATURES OF PHYTONYMS FOUND IN FOLKLORE AND MYTHOLOGICAL SOURCES IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

ABSTRACT

This article analyzes effective methods of teaching phytonyms found in folklore and mythology in English and Uzbek languages. It highlights the cultural, symbolic, and traditional significance of these plant names and explores their potential in integrating language and cultural education. The study also provides practical suggestions for using interactive techniques and elements of oral folklore to enrich the learning process.

Keywords: phytonyms, folklore, mythology, cultural heritage, symbolic meaning, oral folklore, language and culture, teaching methodology

Маткаримова Гулирано Абдуллаевна

Преподаватель кафедры романогерманской филологии

Университет Мамуна, г. Хива, Хорезмская область, Республика Узбекистан

Эл. почта: guliranomatkarimova@gmail.com

**ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФИТОНИМОВ,
ВСТРЕЧАЮЩИХСЯ В НАРОДНОМ УСТНОМ ТВОРЧЕСТВЕ И
МИФОЛОГИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКАХ**

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются эффективные методы преподавания фитонимов, встречающихся в фольклоре и мифологии английского и узбекского языков. Особое внимание уделяется культурному, символическому и традиционному значению этих названий растений, а также рассматриваются их возможности в интеграции языкового и культурного образования. В исследовании также предлагаются практические рекомендации по использованию интерактивных методик и элементов устного народного творчества для обогащения учебного процесса.

Ключевые слова: фитонимы, фольклор, мифология, культурное наследие, символическое значение, устный фольклор, язык и культура, методика преподавания.

Kirish. Insonlarning atrof-muhit, umuman, tabobat bilan munosabati nabobotlarni nomlash jarayonida muxim omil hisoblanadi. Ular bir o‘simlikni nomlar ekan, uning juda ko‘p hossalardan, belgilaridan birini tanlaydi. Ushbu belgini tanlash jarayoniga ijtimoiy, tabiiy, ruhiy holat tasir ko‘rsatadi. Shulardan biri ishonch va aqidalardir. Din ibtidoiy jamoa tuzumidan hozirgacha xalqimiz ma‘naviy madaniyatining tarkibiy qismi sifatida jamiyatning, oila va shaxs hayotining barcha hujayralarigacha singib ketgan. Fanda qabul qilingan tasniflashga muvofiq, ibtidoiy dinning eng qadimiy shakllaridan biri totemizm bo‘lib, u ilk urug‘chilik davrida paydo bo‘lgan [1,227].

Muhokama va natijalar. O‘zbek va ingliz xalqlari og‘zaki ijodi va adabiy yodgorliklari fitonimlar, ya‘ni o‘simlik nomlarining tahlili bu xalqlarning adabiyoti va madaniyatining chuqur qatlamlarini o‘rganish uchun muhimdir. Fitonimlar xalq og‘zaki ijodida va adabiy yodgorliklarda ko‘p marotaba uchraydi va ular orqali turli davrlarda yashagan o‘zbek xalqining tabiatga, o‘simliklarga, ularning xususiyatlariga bo‘lgan munosabatini anglash mumkin.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi, jumladan, xalq qo‘shiqlari, ertaklar, maqollar va matallar, xalq dostonlarida o‘simliklar nomi juda ko‘p uchraydi. Masalan, xalq qo‘shiqlarida gul va daraxt nomlari, dostonlarda esa dorivor o‘simliklar va ularning afsonaviy xususiyatlari keltirilgan.

Fitonimlarning xalq tilida qo‘llanishini shartli ravishdagi uch xususiyatga asoslanadi deyishimiz mumkin: a) qudsiylik sifati berilgan fitonimlar; b) go‘zallik namunasi bo‘lgan fitonimlar; v) oddiy fitonimlar.

Qudsiylik sifati berilgan fitonimlarni xalqimiz azaldan muqaddas bilib, e‘zozlab kelgan. Ularga isiriq (shevalarda ispan, adraspan), tubo (jannatda o‘sovchi daraxt), anjir (jannatiy meva hisoblanadi va shu sababdan yog‘ochini ham yoqish nojoiz deb bilinadi) kabilar mansub bo‘lsa, guzallik namunasi bo‘lgan fitonimlarga gul, lola, sarv, sanuvbar, shamshod, sum kabilar mansubdir. Ana shu ikki “xususiyat” ga ega bulmagan fitonimlarni oddiy fitonimlar deyishimiz mumkin. Fitonimlarning etimologiyasi juda qadimiy va e‘tiborli faktlarga juda boydir [2,37-42]. Bu nomlarning katta qismi payo bulishida turk xalqlari rol o‘ynagan desak aslo xato bo‘lmaydi. Quyida kelitilgan bir qancha fitonimlar bizga aynan eng qadimgi qo‘yozmalardan, doston va afsonalardan yetib kelgan.

Ispan –(isiriq) د اسپن ilmiy nomi Peganum; urug‘i va poyasi olovga solinganda tutuni ko‘zni yoshlatadigan, urug‘i mayda to‘kiladigan, isiriqdoshlar oilasiga mansub o‘simlikning nomi. Shuningdek, eroninuy shamsiy yil o‘n ikkinchi oyining (20-fevral, 20-mart) nomi. Qolaversa, oy ilohasi ham Isfand nomi bilan atalgan. Bu o‘simlik nomi qadimgi Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi sanaladigan “Avestos”da spenta so‘zi bilan tilga olingan bo‘lib, muqaddas m‘nosini anglatadi. Zardushtiylik dinida uni Xaoma va Mitra xudolarining muqaddas ichimligining asosi deb bilganlar. Harmala ruhiy ta‘sir uchun keng qo‘llangan qadimgi davrlardagi eng zaruriy o‘simliklardan biri bo‘lib, uni Eron mifologiyasidagi Xaoma ilohining sirli sharbati deb bilganlar. Haoma – hauma avestoviy hav – ezmok, suvini chiqarmoq bilan bog‘liq [3,52-53].

Isiriqning adrasman, adraspan, adiraspan, dasht hovlisi, yovvoyi hovli, qabriston o‘simligi, belobok, it iksiri, bibik, spand, isirik, harmal(arabchada), garmala(ruscha) kabi nomlar bilan ataladi. Uning asl nomi hazorispanddir. Uning botanik, tibbiy, dorivorlik xususiyatlari o‘rganilgan. Biz bu shifobaxsh o‘simlik nomining lingvistik jihatlariga e‘tibor qaratamiz. Tilimizda isiriqqa nisbatan “tabiat gavhari” perifrasi ishltiladi.

Eng keng qo‘llaniladigan shakli isiriq leksemasi bo‘lib, so‘zning tuzilishi sodda ko‘rinishda bo‘lsa-da, kelib chiqishi bu o‘simlikning urug‘lari, tutatilishi va o‘tkir hid(is) ga egaligi sababli [is+urug‘] yoki [is+ur+iq] shaklida bo‘lgan taxminlar ham yo‘q emas.

Xalq bu o‘simlik, uning hidi kishini balo-qazodan, ko‘z tegishdan asraydi deb hisoblaydi. Shu tufayli uning ismand, isfand kabi nomlari chaqaloqqa ism sifatida qo‘yiladi: Isfandiyor, Isfand, Ismand kabi.

Isiriq xalq og‘zaki ijodi namunalarida ham juda ko‘p qo‘llangan. Chunki u xalqimizning eng qadimgi tarixiga xam guvoh bo‘lgan o‘simliklardan biri bo‘lib, uning sehrlı kuchiga ishonish hozirgi kungacha ham saqlanib qolgan. Xususan, xalq og‘zaki ijodi namunalarida:

Xozorisvand, xozorisvand,
Tutatmasam manda gunoh,
Poklamasang sanda gunoh!

Isiriq, isiriq,
Chatnasin, isiriq,
Patlasin, isiriq,
Bachamga ko‘z tegmasin,
Kim bachamga ko‘z qilsa,
Ko‘zlari oqib tushsin! [4,10-11]

Olu; (olxo‘ri); ilmiy nomi *Prunus domestica*. Ranoguldoshlar oilasiga mansub danakli meva daraxti va uning mevasi [5,119]. Bu fitonim o‘zbek shevalarida keng qo‘llanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida uning o‘rnida shu ma‘noni ifodalagan holda olxo‘ri fitonimi istifoda qilinadi. Olu fitonimi ham avestizmlardan birisi bo‘lib, “Avesto”da u al‘uk tarzida qo‘llangan va olcha, olxo‘ri ma‘nolarini anglatgan.

Tarvuz. Ilmiy nomi *Citrullus lanatus*; Qovoqdoshlar oilasiga mansub, palak otib o‘sadigan bir yillik poliz o‘simligi va uning yeyiladigan yumalok yoki ovalsimon, qizil go‘shli, sersuv hosili [6,679]. Bu fitonim ham avestizlardan biri bo‘lib, “Avesto”da u xarb‘uc, xarb‘ucak tarzida qo‘llangan va qovun yoki tarvuz mevalarini atashda birdek qo‘llanavergan.

“Olma” (*Apple*). Ilmiy nomi *Malus domestica*; komponentli frazeologizmlar g‘arb madaniyatida va xususan ingliz tilida, tashqi ko‘rinishda jozibali, ammo axloqsiz shaxsni bildirish uchun ishlatiladi: yomon olma (a bad apple) – yaxshi odamlar guruhidagi yomon odam ma‘nosini ifodalovchi ibora hisoblanadi. Ingliz mentalitetida “olma” fitonimi ingliz frazeologiyasida Bibliya an‘analarining aks etishi tufayli aldamchi muvaffaqiyatni anglatadi. Olma mevasini yegan Odam atoning jannatdan haydalihi sababli ushbu ibora yuzaga kelgan (Adam’s apple). Injil kitobiga ko‘ra, olma vasvasa, gunoh va insoniyatning qulashi, inson ruhidagi birinchi isyonchilik ramzi sifatida tanilgan chunki, xristian dini vakillari Odam Ato va Momo Havo iste‘mol qilgan taqiqlangan meva olma ekanligiga ishonishgan. Bundan tashqari ingliz tilida qator boshqa olma bilan bog‘liq frazeologizmlar bo‘lib, barchasi salbiy ma‘noda ishlatiladi. Masalan, apple of discord - nifoq olma, the apple of one’s eye – kimnidir ko‘z qorachig‘iday asrash, he apple of Sodom- yoqimli, lekin chirigan. Bu iboralarning barchasi Injil kitobidan kelib chiqqan. Fitonimning potentsial semalari "qurt", "chirigan", "yomon", "adovat". Bundan tashqari g‘arb bolalar adabiyotida ham “olma” fitonimi yomonlik ramzi sifatida ko‘p uchraydi. Bunga yaqqol misol “Oppoqoy va yetti mitti odam” ertagi bo‘la oladi. Chunki unda jodugar kampir Oppoqoyga aynan zaharlangan qizil olma bergandan so‘ng, malika abadiy uyquga ketishi ifodalangan.

Ingliz tilida “Apple” ya‘ni olmaning qator ijobiy xarakterlarini ham uchratamiz. Masalan, ularda "An apple a day keeps the doctor away" ya‘ni “Kuniga bitta olma - va sizga shifokor kerak emas” maqoli mavjud. Bu bilan ular olma salomatlik, hayotiylikni tiklash ramzi ekanligiga

ishonishini tushunish mumkin. "The apple doesn't fall far from the tree" maqoli esa aynan o'zbek tilidagi "Olmaning tagiga olma tushadi" maqoli bilan ma'no jihatidan deyarli bir xil. Bu maqol orqali ikkala xalq ham allegoriya sifatida qo'llagan. Masalan, qizi onasi kabi harakat qiladi, bir xil xarakterli xususiyatlarga ega, xuddi shunday yo'l tutadi degan ma'nolarni ifodalaydi.

Sharq xalqlarida esa olmani sevgi va muhabbat ramzi sifatida ko'rishimiz mumkin. Olma sevgi mevasi sifatida tanilgan va azaldan mehr va ishtiyoqni ifodalash uchun ishlatilgan. Xalq og'zaki ijodi namunalariga ko'ra yigitlar o'z yoqtirgan qizlariga qizil olma berish orqali o'z muhabbatlarini izhor qilishgan.

Olma mevasiga dunyo xalqlarining mifologiyasi va ertaklarida ham murojaat qilingan. Xususan, qadimgi yunon afsonalariga ko'ra, sevgan kishiga olma otish orqali sevgi ifodalanishi adabiyotda qayd etilgan. Bu an'ana sharq xalqlarida ham mavjud bo'lib, "aniqlashtirish" ma'nosini ham bildiradi.

"-Kim ajdahoni o'ldirdi, qizim? - deb so'radi podshoh.

-Bir yigit o'ldirdi. Bizning mahalliy yigitlardan emas, - qiz javob berdi. Podshoh:

-Qizim, sen kim o'ldirganini ko'rsang taniy olasanmi? -Albatta, bilaman. Podshoh qiziga olma berib:

-Men oltidan oltimish yoshgacha bo'lgan odamlarni chaqiraman. Ajdahoni o'ldirgan kishiga olma otasan, dedi." [7,148]

Bu an'ana bizning ertaklarimizda ham eslatilgan, ammo bugungi kunda ishlatilmaydi. Lekin ko'rinib turganidek, o'tmishda xalqimiz olma otish orqali "aniqlash" usulini qo'llagan.

Masalan, Shovotda ushbu marosim Ramazon oyining ikkinchi kunida o'tkaziladi. Ushbu kun fотиha to'yi o'tkazilgan kelinchak yangasi hamrohligida uyidan olisroq bo'lgan yaqin tanishining bog'iga keladi. Bu yerda kelinchak yangasi va dugonalari bilan arg'imchoq uchadi. Muayyan kelushuvga muvofiq bu joyga bo'lajak kuyov ham do'stlari bilan tashrif buyuradi. Ular sal chetroq joyda tik turib kelinchakka olma va shirinliklar otishadi. Bu yerda daraxt mevalari eng asosiy sehrli ahamiyat qozonadi. Arg'imchoqlarda uchish ham oddiy ko'ngil ochishdan iborat emas. Turli xalqlar orasida yaxshi ma'lum bo'lgan bu odat hosildorlik inonchlariga intiluvchi taqlidiy-intim xarakterga ega bo'lgan sehrli usullardan biridir.

Olma fitonimi sevgini ifodalovchi detal sifatida dunyoning ko'p xalqida mavjud. Bu yerda olmaning rangi ham muhim rol o'ynaydi (masalan, qizil atirgul kabi). Xalqning lingvistik ongida qizil olma sevgi e'tirofining ramzi hisoblanadi. Ammo quyidagi misolga e'tibor bersak, olma islomiy e'tiqod asosida sharq xalqlarining hozirgi qarashlarini ifodalayotganini ko'rishimiz mumkin:

"Ha, bolalarim, nima qilyapsizlar? - deb so'radi. Ular darhol o'rnidan turib salomlashishdi. Podshoh va vazir bir-birlariga qarashib, farzandsiz ekanliklarini, boylklari tufayli bu joyga kelishganini aytishdi. Qariya ularni tingladi. So'ngra ko'ksidan ikkita qizil olma olib, bittasini podshohga, bittasini vazirga berib:

Bolalarim, bu olmalarning har birini sevgan xotiningiz bilan bo'lishing, ishlaringizni beparvo qilmang, fuqarolarni zulm qilmang va mamlakatni farovon tuting, - dedi." [8,134]

Bundan tashqari, olma ayol go'zalligi ramzi sifatida juda mashxur. Yanoqlarning qizilligi aynan olma mevasiga qiyoslaniladi. "Olma yanoq go'zal yor". O'zbek tilida ham qator olma fitonimi bilan bog'liq maqollar mavjud: "Otasi achchiq olma yesa, o'g'lining tishi qamashar", "Olma olmadan rang olar", "Olmaning tagiga olma tushadi" kabilar shular jumlasidandir.

Xulosa. Folklor va mifologiyaga oid fitonimlar – bu faqatgina o'simlik nomlari emas, balki xalqning tafakkuri, dunyoqarashi, e'tiqodi va madaniy merosining ko'zgidir. Ingliz va o'zbek tillaridagi bunday birliklarni o'qitish orqali nafaqat lug'aviy boyluk, balki xalq og'zaki ijodi, qadimiy urf-odatlar va timsollarni o'rgatish mumkin. Ushbu maqolada keltirilgan metodik yondashuvlar orqali o'quvchilarda til va madaniyatni uyg'un o'rgatish, o'rganilayotgan tilga qiziqishni oshirish hamda xalqona tafakkurni chuqurroq anglash imkoniyatlari yaratiladi. Xulosa qilib aytganda, fitonimlarni folklor va mifologiya asosida o'rgatish – bu til o'qitishning yangi va samarali yo'nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси . –Тошкент: Фан, 1994. – Б. 227

2. Йўлдошев Р. “Муқаддимат ул-адаб”даги фитонимлар // Тарих ва филология фанларининг долзарб муаммолари. Хива. 2001. –Б. 52-54; Йўлдошев Р., Матниёзов А. “Муқаддимат ул-адаб” – ўзбек тили тарихи учун ноёб манба // Илм сарчашмалари. Урганч, 2013. № 10. –Б. 37-42.
3. Маҳмудов, Р.Ўзбек тилида авестизмлар [монография] : / Р. Маҳмудов.-Хива : Хоразм Маъмун академияси, 2020 .-b.52-53
4. Mamatqul Jo‘rayev “Oy oldida bir yulduz” o‘zbek xalq marosim qo‘shiqdari.(to‘plam) G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 2000 yil. B 10-11
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том III. 2006. – Б. 119.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том III. 2006. – Б. 679.
7. Jahon xalq ertaklari. Osiyo. Arab xalq ertaklari turkumidan // Uch olma va o‘lik juvon. – Toshkent: Meriyus, 2009. – B. 148.
8. Shternberg L.Ya. Pervobytnaya religiya v svyete etnografii. –L.: 1936. –S.466; Frezer D. Zolotaya vetv, vыр. 11. –M.: 1928. –S. 128, 131.
9. Рабғузий. Носируддин Бурхонуддин. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи,1991. – Б. 134.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000